# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## 2023- YIL YANVAR-IYUL
## (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz

*2023- yil yanvar-iyul oylarida*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 11 149,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,6 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 118,0 % ga o‘sishi hisoblanadi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat

### 2023- yil yanvar-iyul oylarida







2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 319,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ini tashkil etdi.



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – 1,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 8,4 % (7,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 15,1 % (12,4 %) va quyi texnologiyalisi – 75,0 % (78,7 %) ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,0 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,5 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,0 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,2 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,1 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,4 % (2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,6 %) ni tashkil

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



## 2023- yil yanvar-iyul oylarida












2023-yilning yanvar-iyul oylari davomida jami sanoatda 25,4 ming tonna bug‘doy uni ishlab chiqarilgan bo‘lib, (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 65,9 % ga kamaygan ), 9,0 ming tonna paxta tolasi (25,6 % kamaygan), 13,3 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (63,8 % ga kamaygan) hamda 16,3 ming tonna paxta chigiti (16,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyul | 2023- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Omuxta yem, ming tonna | 36,7 | 13,3 | -23,4 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna | 74,6 | 25,4 | -49,2 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 12,1 | 9,0 | - 3,1 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t | 8,2 | 4,6 | - 3,6 |

## Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 82,6 % bo‘lgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 10,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 61,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 324,8 mlrd so‘mni yoki jami sanoat hajmining 3,5 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 674,1 mlrd so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 536,2 mlrd so‘mni, joriy 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 670,5 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 134,3 mlrd so'mga ortgan.



## Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 242,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 392,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 150,4 mlrd. so‘mga ko‘paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylarida jami sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,4 % ga teng bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 017,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 10,4 % ni, ya'ni jami 951,7 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,6 % ni tashkil etib, 1 297,4 mlrd. so‘mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 345,7 mlrd. so‘mga oshgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 282,0 mlrd. so‘mni, jami sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati bo‘yicha 372,3 mlrd. so‘mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, tashkil etdi.




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,5 mlrd. so‘mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 2,2 mlrd. so‘mga ko‘payib, 8,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, yani 132,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o‘tgan yilga nisbatan 102,1 mlrd. so‘mga ko‘paygan va 234,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 677,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,0 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 167,9 mlrd so‘mga kamayganligi kuzatildi.







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyul | 2023- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 3 609,3 | 3 884,6 | 275,3 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 44,9 | 37,2 | - 7,7 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,9 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyul | 2023- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta 'minoti bo' yicha xizmatlar - mlrd so ' m | 52,3 | 60,4 | 8,1 |
| Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 13,0 | 19,7 | 6,7 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 8,1 mlrd. so'm yoki 13,4 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,7 mlrd. so'mga kao'payganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 717,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish 106,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,3 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

93,0 %

2023- yil yanvar-iyul

110,4 %

2022- yil yanvar-iyul

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 47,0 % ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 10,8 %, Kosonsoy tumani 9,1 % ni, Chust tumani 7,8 % ni, Uychi tumani 5,3 % ni, Chortoq tumani 4,8 %, Namangan tumani 4,6 % ni tashkil etdi.

116,3 %

2023- yil yanvar-iyul

121,6 %

2022- yil yanvar-iyul

## 2023- yil yanvar-iyul oylarida

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish.

### yanvar-iyul mlrd.so'm




### yanvar-iyul o'sish sur'ati

### Oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-iyul mlrd. so'm




### Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-iyul mlrd.so'm







Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-iyul o'sish sur'ati




yanvar-iyul o'sish sur'ati



## 2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 055,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,4 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-iyul)**